



REGIONAL LEADERSHIP AS AN IMPORTANT FACTOR IN INTEGRATION PROCESSES

Ilyos E. Shaymardanov

Responsible Officer, Master's Student,

Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

University of World Economy and Diplomacy

ilyosshaymardanov86@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: regional integration, regional leadership, bilateral tandem, functionalism, norm localization, crisis stabilizer, Central Asia.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article theoretically and empirically analyzes the role of the leadership institution in ensuring the stability of regional integration processes under conditions of global transformations. Within the framework of the study, the optimistic views of functionalist and neofunctionalist theories are critically reviewed, and the necessity of a political agency and a consensus-based tandem model for the crisis-resilience of integration is substantiated. The article systemizes the mechanisms of the Franco-German bilateral tandem model within the European Union and introduces the possibilities of adapting this experience to the post-Soviet Central Asian geopolitical environment based on Amitav Acharya's "norm localization" methodology. The analysis shows that regional leadership ensures integration stability through three main mechanisms-material provision (paymaster function), mediation in interstate negotiations, and the definition of normative foundations, reaching its highest significance during periods of systemic crises. The stability of integration processes depends not on unipolar hegemony, but on a bilateral partnership tandem relying on legitimate institutional cooperation, which, in the Central Asian region, requires the institutionalization

**MINTAQAVIY YETAKCHILIK INTEGRATSIYA JARAYONLARINING MUHIM
OMILI SIFATIDA****Ilyos E. Shaymardanov***O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**Qonunchilik palatasi mas'ul xodim**Jahon iqtisodiyoti va universiteti magistrant*ilyosshaymardanov86@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mintaqaviy integratsiya, mintaqaviy yetakchilik, ikki tomonlama tandem, funksionalizm, me'yorlarni mahalliyashtirish, inqiroz barqarorlashtiruvchisi, Markaziy Osiyo.

Annotatsiya: Ushbu maqolada global transformatsiyalar sharoitida mintaqaviy integratsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda yetakchilik institutining roli nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida funksionalizm hamda neofunksionalizm nazariyalarining optimistik qarashlari tanqidiy ko'rib chiqilib, integratsiyaning inqirozlarga chidamliligida siyosiy agentlik va konsensusga asoslangan tandem modelining zaruriyati asoslanadi. Maqolada Yevropa Ittifoqi doirasidagi Fransiya-Germaniya ikki tomonlama tandem modeli mexanizmlari tizimlashtirilgan hamda Amitav Acharyaning "me'yorlarni mahalliyashtirish" metodologiyasi asosida ushbu tajribani postsovet Markaziy Osiyo geosiyosiy muhitiga adaptatsiya qilish imkoniyatlari ilmiy muomalaga kiritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy yetakchilik uchta asosiy mexanizm – moddiy ta'minotchilik, davlatlararo muzokarlarda vositachilik va me'yoriy asoslarni belgilash orqali integratsiya barqarorligini ta'minlaydi hamda tizimli inqirozlar davrida eng yuqori darajaga ko'tariladi. Integratsiya jarayonlarining barqarorligi bir qutbli gegemonlikka emas, balki legitim institutsional hamkorlikka tayanadigan ikki tomonlama sheriklik tandemiga bog'liq bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasida bu model O'zbekiston va Qozog'iston hamkorligini institutsionallashtirishni talab etadi.

РЕГИОНАЛЬНОЕ ЛИДЕРСТВО КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Илёс Э. Шаймарданов

Ответственный сотрудник, магистрант,

Законодательная палата Олий Мажлиса Республики Узбекистан

Университет мировой экономики и дипломатии

ilyosshaymardanov86@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: региональная интеграция, региональное лидерство, двусторонний тандем, функционализм, локализация норм, стабилизатор кризиса, Центральная Азия.

Аннотация: В данной статье теоретически и эмпирически анализируется роль института лидерства в обеспечении стабильности процессов региональной интеграции в условиях глобальных трансформаций. В рамках исследования критически рассматриваются оптимистические взгляды функционалистских и неофункционалистских теорий, обосновывается необходимость политического агентства и основанной на консенсусе модели тандема для кризисоустойчивости интеграции. В статье систематизированы механизмы модели франко-германского двустороннего тандема в рамках Европейского Союза, а также на основе методологии «локализации норм» Амитава Ачарьи в научный оборот введены возможности адаптации этого опыта к геополитической среде постсоветской Центральной Азии. Анализ показывает, что региональное лидерство обеспечивает стабильность интеграции посредством трех основных механизмов - материального обеспечения (функция *paymaster*), посредничества в межгосударственных переговорах и определения нормативных основ, достигая наибольшего значения в периоды системных кризисов. Стабильность интеграционных процессов зависит не от однополярного гегемонизма, а от двустороннего партнерского тандема, опирающегося на легитимное институциональное сотрудничество, что в Центральноазиатском регионе требует институционализации взаимодействия между Узбекистаном и Казахстаном.

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda globallashuv va mintaqalashuv jarayonlari transmilliy siyosiy hamda iqtisodiy makonni shakllantiruvchi yetakchi tendensiyalarga aylanmoqda. Ushbu sharoitda alohida suveren davlatlar o'zlarining milliy, iqtisodiy va xavfsizlikka oid manfaatlarini bir tomonlama himoya qilish o'rniga, yaqin geografik qo'shnilar bilan jipslashish hamda umumiy institutlar orqali jamoaviy harakat qilish strategiyasini afzal ko'rmoqdalar. Biroq, ushbu mintaqaviy integratsiya tashabbuslari o'z-o'zidan yoki avtomatik tarzda muvaffaqiyatli dinamikaga ega bo'lmaydi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy birlashish loyihalarining ko'pchiligi institutsional turg'unlik yoki butunlay muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, boshqa guruh loyihalar uzoq yillar davomida inqirozlarga chidamlilik ko'rsatib, barqaror ravishda rivojlanib kelmoqda. Mazkur holat mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtiruvchi va uning uzluksiz barqarorligini ta'minlovchi fundamental, hal qiluvchi sabab omili nima ekanligi borasida dolzarb nazariy va amaliy muammoni yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar sharxi. Mintaqaviy integratsiya nazariyasi va amaliyoti doirasidagi ushbu markaziy muammoni hal qilish maqsadida, mazkur tadqiqotda mintaqaviy yetakchilik instituti, xususan, konsensusga asoslangan ikki tomonlama tandem shaklidagi yetakchilik integratsiya jarayonlari barqarorligining tarkibiy va zaruriy sharti sifatida ilgari suriladi. Ushbu konseptual argumentni asoslash uchun xalqaro munosabatlar nazariyasidagi funksionalistik va neofunksionalistik maktablarning "mintaqaviy integratsiya, bir bor boshlangach, siyosiy yetakchilikning doimiy sarmoyasini talab qilmay, o'zining ichki texnik va iqtisodiy mantig'i asosida davom etadi" degan optimistik da'vo va yondashuvlarini tanqidiy tahlil qilish lozim.

Klassik funksionalizm asoschisi David Mitrany [8] siyosiy aralashuvlardan xoli bo'lgan mutaxassislar o'rtasidagi texnik hamkorlik orqali xalqaro tizimning asta-sekin birlashishi g'oyasini ilgari surgan. U siyosiy yetakchilarni integratsiyaning harakatlantiruvchi kuchi emas, aksincha, xalqaro hamkorlik yo'lidagi asosiy to'siq deb hisoblab, siyosiy o'zgaruvchanlikdan himoyalangan avtonom jarayonni yaratishga ongli ravishda uringan. Ernst Haas [2] ushbu qarashni yanada pishiq neofunksionalistik konsepsiyaga aylantirib, iqtisodiy sohadagi dastlabki hamkorlik o'z-o'zidan "kengayish" (spillover) deb ataluvchi funksional bosimlarni vujudga keltirishini asoslagan. Neofunksionalizmga ko'ra, ushbu funksional zanjir a'zo davlatlar hukumatlarining subyektiv strategik tanlovlaridan qat'i nazar, ularni yondosh siyosiy sohalarda ham integratsiyani majburiy ravishda kuchaytirishga undaydi. Natijada, yetakchilik omili integratsiya tizimining strukturaviy zaruriyati emas, balki obyektiv funksional bog'liqlik mantig'ini tezlashtiruvchi oddiy katalizator darajasiga tushirib qo'yiladi.

Biroq, mintaqaviy integratsiyaning amaliy-empirik voqeligi bu kabi funksional optimizmning cheklanganligini ko'p bor isbotladi. Hatto Ernst Haas [3] o'zining keyingi qayta baholashlarida "spillover" mexanizmi ilk neofunksionalizm nazariyasi bashorat qilganidek avtomatik xarakterga ega emasligini hamda u muayyan siyosiy sharoitlar va irodaga o'ta jiddiy darajada bog'liqligini tan olishga majbur bo'lgan. Masalan, Yevropa integratsiyasi tarixidagi Fransiyaning 1965–1966-yillardagi "bo'sh o'rindiq" (empty chair) inqirozi shuni yaqqol namoyon etdiki, funksional bosimlarga zid harakat qilgan yagona qat'iyatli milliy yetakchi, o'z siyosiy irodasi va suveren pozitsiyasi orqali har qanday institutlashgan integratsiya loyihasining rivojlanishini butunlay to'xtatib qo'yish imkoniyatiga ega. Xuddi shuningdek, 1970-yillardagi "Yevroskleroz" davri umumiy bozor yaratgan zich iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning o'zi, agar status-kvodan yuqoriga ko'tarilish uchun strategik sarmoya kiritishga tayyor muvofiqlashtirilgan siyosiy rahbariyat mavjud bo'lmasa, keyingi bosqichli rivojlanishni ta'minlashga mutlaqo yetarli emasligini fosh qildi.

Ushbu tarixiy pretsedentlar fundamental nazariy xulosani belgilaydi: integratsiya jarayonlari faqatgina ko'maklashuvchi sharoitlarni emas, balki tizimga strategik yo'nalish beruvchi va mustaqil imkoniyat yaratuvchi "siyosiy agentlik" (political agency) subyektivligini talab etadi. Samarali mintaqaviy yetakchilikning yo'qligi integratsion dinamikani shunchaki sekinlashtiribgina qolmay, ayni paytda markazdan qochuvchi (centrifugal) kuchlar to'planadigan va tizimni parchalanishga boshlaydigan muvofiqlashtirish vakuumini yuzaga keltiradi.

Institutsionalizm doirasida keng qo'llaniladigan Paul Pierson [10] tomonidan ishlab chiqilgan "taraqqiyot yo'liga bog'liqlik" (path dependence) nazariyasi integratsiya yetarli darajada chuqurlashib bo'lgach, u yaratgan institutsional sarmoyalar, qaytarib bo'lmas xarajatlar va tarmoq samaralari tizimni ma'lum bir yo'nalishga qat'iy bog'lab tashlashini, natijada ortga qaytish (parchalanish) iqtisodiy va siyosiy jihatdan haddan taxation qimmatga tushishini mukammal tushuntiradi. Biroq, ushbu konsepsiya allaqachon shakllangan va yetuk darajaga yetgan tizimlarning inersiya hisobiga davom etishini izohlashda kuchli bo'lsa-da, integratsiyaning dastlabki boshlanishi, uning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi yoki kutilmagan tizimli inqirozlarni yengib o'tish pallasidagi dinamikani ochib bera olmaydi. Valyuta ittifoqini tuzish, transchegaraviy inqirozlarni boshqarish mexanizmlarini yaratish yoki fiskal birdamlik vositalari bo'yicha strategik bitimlar imzolash kabi tub burilish nuqtalarida (critical junctures) samarali mintaqaviy yetakchilikning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va buni na inersion institutlar, na avtomatik funksional ta'sir mexanizmlari izohlay oladi.

Muhokama va natijalar. Mazkur mulohazalar tizimi mintaqaviy yetakchilik institutining integratsiya barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi uchta konseptual mexanizmini tahliliy jihatdan ajratish imkonini beradi:

1. Moddiy mexanizm (Paymaster funksiyasi): Xalqaro hamkorlik tuzilmaviy jihatdan jamoaviy harakat muammosi va "tekinxo'rlik" (free-riding) rag'batlari oldida zaifdir (Keohane, 1984) [5]. Charles Kindleberger [4] Buyuk Depressiya tahlilida barqarorlashtiruvchi yetakchining yo'qligi xalqaro iqtisodiy tizimni falokatga boshlashini ko'rsatganidek, mintaqaviy loyihaning muvofaqiyati uchun ochiq bozorlar, moliyaviy likvidlik, infratuzilma va xavfsizlik kafolatlari kabi "mintaqaviy jamoat ne'matlari" zarur bo'ladi. Mintaqaviy yetakchilar loyihaning barqarorligi evaziga o'z rasmiy maqomlariga nisbatan nomutanosib darajada ko'p xarajatlarni qoplashga hamda inqirozlar paytida asosiy moliyaviy ta'minotchi (paymaster) yukini zimmasiga olishga tayyorligi bilan tizim inqirozini yumshatadi.

2. Davlatlararo muzokaralarda vositachilik mexanizmi: Yakdil yoki deyarli yakdil qaror qabul qilish tizimi ko'p tomonlama mintaqaviy boshqaruvda Fritz Scharpf [11] ta'riflagan "qo'shma qarorlar qopqoni"ni (joint-decision trap), ya'ni harakatsizlikni yoki milliy pozitsiyalar orasidagi eng quyi umumiy maxraj bilan cheklanish holatini vujudga keltiradi. Oran Young [14] hamda Jonas Tallberg [12] tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, samarali yetakchilar muammoni o'z shaxsiy yechimlarini majburlab o'tkazish orqali emas, balki tor milliy manfaatlardan yuqori turuvchi, boshqa a'zo davlatlar mustaqil ravishda topa olmaydigan o'zaro manfaatli kelishuv doiralarini aniqlash hamda "halol vositachi" (honest broker) sifatida ishonchli kun tartibini shakllantirish orqali hal qiladilar. Ikki tomonlama yetakchilik tandemining o'zaro murosasi kengroq mintaqaviy koalitsiya birlashadigan tortishish markazi vazifasini bajaradi.

3. Me'yoriy (normativ) asoslarni belgilash mexanizmi: Mintaqaviy yetakchilik faqatgina moddiy kuch va ustun muzokara salohiyati namoyishi bilan cheklanib qolmay, u munosabatlar olib boriladigan intersub'yektiv me'yoriy muhitni ham diskursiv tarzda shakllantiradi (Wendt, 1999) [13]. Andrew Moravcsik [9] kabi liberallar milliy afzalliklarni mamlakat ichidagi iqtisodiy guruhlar raqobatining tashqi va o'zgaras mahsuli deb hisoblasalar-da, konstruktivistik yondashuv mintaqaviy birdamlik normalarini izchil ilgari suruvchi yetakchilar vaqt o'tishi bilan ergashuvchi davlatlarning oqilona va qonuniy siyosat degan tasavvurlarini o'zgartira olishini isbotlaydi. Amitav Acharya [1] tomonidan ishlab chiqilgan "me'yorlarni mahalliyashtirish" (norm localization) konsepsiyasi ushbu normalarning tashqi tiqishtirish orqali emas, balki qabul qiluvchi davlatlarning o'z ichki o'zligi va qadriyatlariga moslashtirish, tanlab olish va o'zgartirish jarayonlari orqali tarqalishini ko'rsatadi, bu esa Yevropa tajribasini boshqa mintaqalarga o'tkazishning amaliy uslubiy asosidir.

Yetakchilikning mazkur uchta mexanizmi integratsiyaning tinch va barqaror davrlarida ikkinchi darajali ko‘maklashish xarakterida bo‘lsa-da, tizimli inqiroz lahzalarida institutsional avtomatizm bo‘shashganda, integratsiyani parchalanishdan asrovchi asosiy “inqiroz barqarorlashtiruvchisi” sifatida namoyon bo‘ladi (Webber, 2019) [15]. Bu esa konsensusga asoslangan legitim yetakchilikni majburlashga tayanuvchi bir qutbli gegemonlikdan ajratib turadi; zero, gegemon kuch inqiroz paytida o‘z legitimlik tanqisligi va unga nisbatan norozilik kayfiyati tufayli ixtiyoriy hamjihatlikni safarbar qila olmaydi (Destradi, 2010) [6].

Mintaqaviy yetakchilikning integratsiyaviy barqarorlikni ta‘minlashdagi amaliy samaradorligi to‘rtta tarkibiy omil bilan shartlanadi: yetakchilik kelishuvining ikki tomonlama xususiyati, tandemning institutsional jihatdan qay darajada chuqurlashganligi (Ulrich Krotz va Joachim Schild [7] asoslagan doimiy sammitlar va shartnomaviy majburiyatlar), ergashuvchi davlatlar nazarida uning me‘yoriy legitimligi hamda tashqi buyuk kuchlarning mintaqaviy subyektlar salohiyatini cheklovchi geosiyosiy raqobat muhiti (Krapohl et al., 2014) [16].

Ushbu to‘rtta omil, ayniqsa, postsovet Markaziy Osiyo mintaqasi uchun o‘ta yuqori strategik ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — mintaqaviy yetakchilik integratsiya jarayonlari barqarorligini ta‘minlovchi hal qiluvchi omil ekanligini Yevropa Ittifoqi (Fransiya-Germaniya tandemi) misolida nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilish hamda ushbu ilg‘or tajribani Markaziy Osiyodagi (O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchiligidagi) hamkorlik jarayonlariga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda mintaqaviy integratsiya va xalqaro munosabatlar nazariyalariga asoslangan kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Yevropa Ittifoqi doirasida kechayotgan mintaqaviy integratsiya jarayonlari va ularni shakllantiruvchi siyosiy-institutsional tizim belgilandi. Belgilangan maqsad va vazifalarga erishish, shuningdek, ilgari surilgan gipotezani empirik jihatdan tekshirish uchun quyidagi ilmiy bilish usullari qo‘llanildi:

Tarixiy-institutsional tahlil: Yevropa Ittifoqi integratsiya bosqichlari va ularda yetakchilikning roliga tarixiy baho berish maqsadida qo‘llanildi.

Jarayonlarni kuzatish metodi: Yetakchilik harakatlari va integratsiya natijalari o‘rtasidagi sababiy zanjirni aniqlashtirish uchun xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil: Yevropa va Markaziy Osiyo integratsiya modellarini tizimli solishtirish hamda har ikkisiidagi yetakchilik dinamikasini taqqoslash uchun tatbiq etildi.

Kontrafaktual tahlil: Yetakchilik mavjud bo‘lmagan sharoitlarda qanday oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligi masalasini baholash uchun foydalanildi.

O'lchovli baholash: Nazariy adabiyotda belgilangan moddiy, institutsional, me'yoriy va munosabatlar jihatlarini empirik holatlar asosida tekshirishda qo'llanildi.

Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqining mintaqaviy yetakchilik tajribasini Markaziy Osiyo geosiyosiy muhitiga adaptatsiya qilish imkoniyatlari A. Acharyaning "me'yorlarni mahalliyashtirish" metodologiyasi doirasida qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu metodologik asosda 2018–2025-yillardagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari dinamikasi o'rganilib, yangi empirik materiallar ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqot doirasida mintaqaviy yetakchilikning integratsiya jarayonlarida sabab omili sifatida qanday ishlashi va u qanday mexanizmlar yordamida barqarorlikni keltirib chiqarishi tahlil qilindi. Olingan natijalar mintaqaviy yetakchilik integratsiya barqarorligini ta'minlaydigan uchta o'ziga xos mexanizmni aniqlashga olib keldi:

Birinchidan, moddiy mexanizm mintaqaviy jamoat ne'matlarini taqdim etish orqali ishlashi aniqlandi. Mintaqaviy yetakchi davlatlar jamoaviy harakat muammosi oldida mintaqaviy loyiha o'z manfaatlaridan ustunligini tan olishi va mutanosib ulushdan ortiq xarajatlarni qoplashga tayyorligini namoyish etishi tasdiqlandi [6]. Inqirozlar paytida moliyaviy likvidlikni ta'minlash va mintaqaviy tartib evaziga nomutanosib yukni o'z zimmasiga olishni anglatuvchi ushbu "to'lovchi" (paymaster) vazifasi barqaror integratsiya uchun zaruriy shart ekanligi asoslandi [5].

Ikkinchidan, davlatlararo muzokaralar darajasida ishlovchi vositachilik mexanizmi a'zo davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishdek o'ta muhim vazifani bajarishi belgilandi. Yetakchi davlatlarning ushbu funksiyasi turli yondashuvlar natijasida yuzaga keladigan "qo'shma qarorlar qopqoni"ni (joint-decision trap) bartaraf etishi [7], shuningdek, kichikroq davlatlar mustaqil ravishda topa olmaydigan o'zaro kelishuv doiralarini aniqlab berishi [8] va kelishuvlar qonuniy boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilinishini ta'minlashi dalillandi [9]. Mintaqadagi eng qobiliyatli ikki davlatdan iborat tandem o'zaro kelishuvga erishsa, ularning murosasi kengroq koalitsiya birlashadigan tortishish markazi vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, normativ asoslarni belgilash mexanizmi o'rganildi. Natijalar ko'rsatdiki, mintaqaviy yetakchilar boshqa ishtirokchilar pozitsiyalarini shunchaki umumlashtiruvchi tashqi unsur emas [10], balki me'yoriy asoslash va mintaqaviy birdamlik nimalarni talab qilishini strategik jihatdan ifodalash orqali faol shakllantiruvchi kuchdir [11]. Ushbu me'yorlar mexanik tiqishtirish orqali emas, balki qabul qiluvchi davlatlarning o'zliklariga moslashuv va "mahalliyashtirish" jarayonlari orqali tarqalishi tasdiqlandi [12].

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu mexanizmlarning ahamiyati mintaqaviy loyiha muayyan vaqtda qanchalik institutsional bosim ostida ekaniga chambarchas bog'liqdir. Tizimli inqiroz lahzalarida (masalan, moliyaviy beqarorlik pul ittifoqiga tahdid solganda yoki

tashqi geosiyosiy zarbalar yuz berganda) institutsional avtomatizmning cheklanganligi fosh bo'ladi va mintaqaviy yetakchilik "inqiroz barqarorlashtiruvchisi" vazifasini bajaradi [13]. Tahlillar dominant mintaqaviy kuchning bir qutbli hukmronligi legitimlik tanqisligi hamda norozilik kayfiyatini yuzaga keltirishi sababli inqirozni boshqarishga tuzilmaviy jihatdan yaroqsizligini ko'rsatdi [14]. Aksincha, hokimiyati ixtiyoriy e'tirof va adolatli hamkorlikka tayanadigan yetakchi davlatlarga inqiroz paytida haqiqiy hamjihatlikni safarbar qila oladi.

Pirovardida, mintaqaviy yetakchilikning integratsiyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi amaliy samaradorligi to'rtta tarkibiy omil bilan shartlanishi tizimlashtirildi:

1. Yetakchilik kelishuvining ikki tomonlama xususiyati (ikki sherik o'rtasidagi haqiqiy qo'shma yetakchilik);
2. Tandemning institutsional jihatdan chuqurlashganligi (muntazam sammitlar, qo'shma ishchi guruhlar va shartnoma majburiyatlari orqali o'zaro bog'liqlik samarasining yaratilishi) [15];
3. Ergashuvchi davlatlar nazarida yetakchilik da'vosining me'yoriy legitimligi (ko'zga ko'rinadigan birdamlik harakatlari);
4. Mustaqil mintaqaviy yetakchilikni murakkablashtiruvchi, raqobatchi modellar va muqobil asoslarni taklif etuvchi tashqi buyuk kuchlarning ishtirokini belgilovchi geosiyosiy muhit [16].

Xususan, ushbu so'nggi omil Markaziy Osiyo integratsiyasi uchun o'ta muhim ekanligi, hududda Rossiya, Xitoy va G'arb kuchlarining bir vaqtda ishtirok etishi mintaq subyektlarining mustaqil yetakchilik salohiyatini eng og'ir sinovdan o'tkazadigan raqobatli muhitni yuzaga keltirishi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalari mintaqaviy integratsiya jarayonlariga oid an'anaviy nazariy yondashuvlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, funksionalistlar va neofunksionalistlarning mintaqaviy integratsiya bir bor boshlangach, siyosiy yetakchilikning doimiy sarmoyasini talab qilmay, o'zining ichki mantig'i asosida davom etadi, degan da'volari amaliyotda o'z tasdig'ini to'liq topmadi. David Mitrany [8] va Ernst Haas [2, 3] nazariyalarida ilgari surilganidek, iqtisodiy integratsiya avtomatik ravishda yondosh siyosiy sohalarida kengayish (spillover) bosimini yarata olmaydi. Tarixiy tajriba, masalan, Yevropa Ittifoqining 1965–1966-yillardagi "bo'sh o'rindiq" inqirozi yoki 1970-yillardagi "Yevroskleroz" holati shuni tasdiqlaydiki, kuchli siyosiy iroda va samarali yetakchilikning yo'qligi integratsiyani sekinlashtiribgina qolmay, markazdan qochuvchi kuchlar to'planadigan muvofiqlashtirish vakuumini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda Paul Pierson [10] ilgari surgan "taraqqiyot yo'liga bog'liqlik" (path dependence) nazariyasi allaqachon shakllangan integratsion tuzilmalarning o'z-o'zini

mustahkamlash xususiyatini tushuntirib bera olsa-da, u inqirozli vaziyatlarda (masalan, valyuta ittifoqini tuzish yoki fiskal birdamlikni ta'minlashda) qarshiliklarni yengib o'tish mantig'ini ochib bera olmaydi. Bunday hal qiluvchi pallalarda tizimni saqlab qoluvchi asosiy omil – bu samarali mintaqaviy yetakchilikning mavjudligidir.

Muhokamaning eng e'tiborli jihati yetakchilik modellarining qanday tabiatga ega ekanligi bilan bog'liq. Mintaqaviy yetakchilik inqiroz sharoitlarida "inqiroz barqarorlashtiruvchisi" (Webber, 2019) [15] rolini bajaradi. Bu esa konsensusga asoslangan yetakchilik modelini bir qutbli gegemon hukmronlikdan tubdan ajratib turadi. Dominant mintaqaviy kuch oddiy sharoitlarda itoatkorlikni majburan ta'minlashi mumkin, biroq inqiroz yuz berganda uning legitimlik tanqisligi tufayli haqiqiy hamjihatlikni safarbar qila olmasligi ma'lum bo'ldi (Destradi, 2010) [6]. Subordinatsiyaga majbur bo'lgan davlatlar inqirozdan o'z ishtiroki shartlarini qayta ko'rib chiqish yoki muqobil sheriklar topish uchun imkoniyat sifatida foydalanadilar. Bunga qat'iy muqobil sifatida faqatgina hokimiyati ixtiyoriy e'tirofga va adolatli institutsional hamkorlikka asoslangan yetakchilar (tandemlar) tor milliy manfaatlardan voz kechib, jamoaviy birdamlikni ta'minlay olishlari isbotlandi.

Ushbu nazariy dalillar Markaziy Osiyo mintaqasi integratsiyasi uchun g'oyat dolzarbdir. Mintaqadagi murakkab geosiyosiy muhit – Rossiya, Xitoy va G'arb kabi tashqi buyuk kuchlarning faol ishtiroki hamda ularning raqobatlashuvchi modellarni taklif etishi (Krapohl et al., 2014) [16] mahalliy subyektlarning mustaqil yetakchilik salohiyatini sinovdan o'tkazmoqda. Ushbu sharoitda Markaziy Osiyo mintaqaviy loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish xuddi Yevropa modellaridagi kabi chuqur institutsionallashtirish, legitim va moddiy jihatdan ta'minlangan ikki tomonlama yetakchilikni talab etadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mintaqaviy yetakchilik integratsiya jarayonlarida shunchaki yordamchi unsur emas, balki sababiy jihatdan mustaqil va hal qiluvchi o'zgaruvchi hisoblanadi. Uning ta'siri amalda uchta alohida konseptual mexanizm orqali namoyon bo'ladi: mintaqaviy jamoat ne'matlari bilan ta'minlash (moddiy himoya), davlatlararo nizolar va muzokaralar jarayonida adolatli vositachilik qilish hamda umumiy mintaqaviy birdamlikning me'yoriy asoslarini shakllantirish.

Yetakchilik institutining ahamiyati barqaror davrlarga qaraganda tizimli inqirozlar davrida eng yuqori darajaga ko'tariladi. Qachonki integratsiyaning rasmiy institutsional mexanizmlari parchalovchi bosimlarga qarshi tura olmay qolsa, aynan konsensusga asoslangan yetakchilik qutqaruvchi vazifasini bajaradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, integratsiyaviy chidamlilikni ta'minlovchi ushbu yetakchilik legitimlik taqchilligini keltirib chiqaruvchi bir qutbli gegemonlik orqali emas, balki yetarli moddiy salohiyatni teng huquqli institutsional maqom va tan olingan

me'yoriy nufuz bilan uyg'unlashtiradigan ikki tomonlama hamkor yetakchilik tandemplari orqali eng samarali tarzda amalga oshadi.

Yevropa Ittifoqi va uning doirasidagi Fransiya-Germaniya munosabatlari mazkur nazariy g'oyalarning yetmish yillik integratsiya tarixi davomida, jumladan, so'nggi o'n besh yildagi o'tkir inqirozli davrlarda ham amalda ishlab kelayotganining eng yorqin paradigmatic empirik misolidir. Ushbu ilg'or xalqaro tajribani Markaziy Osiyo makoniga adaptatsiya qilish O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishni, Maslahat uchrashuvlari mexanizmini huquqiy va byurokratik jihatdan institutsionallashtirishni, shuningdek, tashqi geosiyosiy bosimlarga chidamli mustaqil suveren platformani jipslashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Acharya, A. (2004). How ideas spread: Whose norms matter? Norm localization and institutional change in Asian regionalism. *International Organization*, 58(2), 239–275.
2. Destradi, S. (2010). Regional powers and their strategies: Empire, hegemony, and leadership. *Review of International Studies*, 36(4), 903–930.
3. Haas, E. B. (1958). *The uniting of Europe: Political, social, and economic forces, 1950–1957*. Stanford University Press.
4. Haas, E. B. (1975). *The obsolescence of regional integration theory*. Institute of International Studies, University of California.
5. Keohane, R. O. (1984). *After hegemony: Cooperation and discord in the world political economy*. Princeton University Press.
6. Kindleberger, C. P. (1973). *The world in depression, 1929–1939*. University of California Press.
7. Krapohl, S., Meissner, K. L., & Muntschick, J. (2014). Regional powers as leaders or rambos? The ambivalent behaviour of Brazil and South Africa in regional economic integration. *Journal of Common Market Studies*, 52(4), 879–895.
8. Krotz, U., & Schild, J. (2013). *Shaping Europe: France, Germany, and embedded bilateralism from the Elysée Treaty to twenty-first century politics*. Oxford University Press.
9. Mitrany, D. (1943). *A working peace system*. Royal Institute of International Affairs.
10. Moravcsik, A. (1998). *The choice for Europe: Social purpose and state power from Messina to Maastricht*. Cornell University Press.
11. Pierson, P. (2000). Increasing returns, path dependence, and the study of politics. *American Political Science Review*, 94(2), 251–267.

12. Scharpf, F. W. (1999). *Governing in Europe: Effective and democratic?* Oxford University Press.
13. Tallberg, J. (2006). *Leadership and negotiation in the European Union*. Cambridge University Press.
14. Webber, D. (2019). *European disintegration? The politics of crisis in the European Union*. Red Globe Press.
15. Wendt, A. (1999). *Social theory of international politics*. Cambridge University Press.
16. Young, O. R. (1991). Political leadership in regime formation: On the development of institutions in international society. *International Organization*, 45(3), 281–308.